Mazkur yondashuv Maxdumi A'zamning juft tanlash haqidagi qarashlarini zamonaviy psixologiyadagi mating selection va matching theory konsepsiyalari bilan bog'laydi hamda R.Sternbergning muhabbat nazariyasidagi intimlik, ehtiros va mas'uliyat komponentlari bilan uyg'unlikni ko'rsatadi. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, juft tanlashda faqat bir mezonga (boylik, go'zallik yoki nasabga) tayanish nikoh barqarorligini buzuvchi xatodir, shu bois diyonat va axloqiy yetuklik asosiy ustuvor mezon bo'lishi kerak. Shuningdek, Maxdumi A'zam ta'limotida halol mehnat, halol rizq va halol farzand o'rtasidagi uzviy bog'liqlik oilaviy farovonlikning asosiy modeli sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv Naqshbandiya "Dast ba kor, dil ba yor" tamoyili bilan uyg'un bo'lib, mehnat va ma'naviyatning birligini ifodalaydi hamda oilaviy hayotda axloqiy poklik va ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maxdumi A'zamning shaxsiy hayoti va amaliy faoliyati uning halol luqma haqidagi ta'limotining hayotiy ifodasi bo'lib, dehqonchilik faoliyati va "Battixiya" risolasidagi mulohazalar nazariya va amaliyot birligini ko'rsatadi. U er-xotin munosabatlarini yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida talqin qilib, oilaviy hayotni nafaqat ijtimoiy, balki chuqur ruhiy hodisa darajasiga ko'taradi. "Farzand otasining siridir" g'oyasi va Hazrat Nuh (a.s.) haqidagi rivoyat orqali ota-bola munosabatlari biologik emas, balki ma'naviy uzluksizlik asosida izohlanadi. Muallifning juft tanlashdagi axloqiy mezonlari, halol turmush tamoyillari va "Dast ba kor, dil ba yor" g'oyasi zamonaviy sharoitda sog'lom oilaviy munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, uning qarashlari gender munosabatlarini qayta talqin qilish, avlodlararo bog'liqlikni mustahkamlash va keksalar mavqeini yuksaltirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Maxdumi A'zam Dahbediy intellektual merosi oilaviy farovonlik paradigmasi va nikoh fenomeni jihatidan klassik tasavvufiy oilashunoslikning konseptual cho'qqilaridan biri hisoblanadi. "Asror un-nikoh" risolasidagi nikoh fenomenologiyasi, juft tanlash to'rtlik kriteriyasi, halol luqma-halol rizq doktrinasi, er-xotin munosabatlarining ibodat-ekzistensial talqini, "Sharhi al-valadi sirru abiyhi" risolasidagi genealogik-ma'naviy uzluksizlik konsepsiyasi yaxlit holda yaxlit oilashunoslik paradigmasini tashkil etadi. Mazkur paradigma nikohni biologik, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar uyg'unligi sifatida talqin etib, juft tanlashda axloqiy mezonlar, halol turmush, er-xotin munosabatlari va avlodlar davomiyligiga mas'uliyatni asosiy tamoyillar sifatida belgilaydi. Bu yondashuv oila institutini mustahkamlashda muhim nazariy asos bo'lib, Maxdumi A'zam merosini zamonaviy oilashunoslik bilan integratsiyalash jamiyat ma'naviy rivoji va kelajak avlodlar farovonligi uchun dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2021, 416-bet.

(2). Maxdumi A'zam. Battixiya. Tarjima va izohlar. Samarqand, Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2018, 64-bet.

(3). Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, "Movarounnahr", 2009, 446-bet.

(4). Navro'zova G. Naqshbandiya tariqati ta'limoti. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010, 244-bet.

(5). Sharipova O. Maxdumi A'zam ta'limotida oila va tarbiya masalalari. Buxoro, "Durdona", 2019, 188-bet.

(6). Namozov B. Tasavvuf falsafasida ijtimoiy munosabatlar. Toshkent, "Akademnashr", 2020, 256-bet.

(7). Zoirov E. Maxdumi A'zam Dahbediy meroshunosligi. Samarqand, Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2021, 224-bet.

Arziev Ruslan (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Falsafa" kafedrasi dotsenti v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); https://orcid.org/0000-0002-9006-8599;kkjurnalist@gmail.com)

SOTSIODEMOKRATIK JARAYONLAR VA IJTIMOIY FIKR TRANSFORMATSIYASI: MILLIY VA GLOBAL YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Maqolada sotsiodemokratik taraqqiyot modellarining milliy ijtimoiy-siyosiy tajriba va xalq mentaliteti bilan o'zaro aloqadorligi falsafiy tahlil qilingan. G'arb liberal-demokratik andozalarining milliy voqelikka transformatsiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy va mediamuhit misolida o'rganiladi. Tadqiqotda mintaqadagi mediamarkazlarning ijtimoiy fikrni barqarorlashtirishdagi potensiali, texnologik infratuzilmasi va axborot uzatishdagi subyektiv ziddiyatlar ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy ong evrilishlarida mediatorlarning mas'uliyati va demokratik qadriyatlarni qaror toptirishning institutsional muammolari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *sotsiodemokratiya, Qoraqalpog'iston, mediamarkaz, ijtimoiy fikr, liberal demokratiya, axborot texnologiyalari, ijtimoiy transformatsiya, mediamakon, jamoatchilik muloqoti, institutsional tahlil.*

СОЦИОДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ И ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ: НАЦИОНАЛЬНЫЕ И ГЛОБАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. *В статье представлен философский анализ взаимосвязи моделей социодемократического развития с национальным социально-политическим опытом и менталитетом народа. Процесс трансформации западных либерально-демократических стандартов в национальную реальность исследуется на примере общественно-политической и медийной среды Республики Каракалпакстан. В исследовании раскрывается потенциал медиацентров региона в стабилизации общественного мнения, их технологическая инфраструктура и субъективные противоречия в передаче информации. Также анализируется ответственность медиаторов в трансформации общественного сознания и институциональные проблемы утверждения демократических ценностей.*

Ключевые слова: *социодемократия, Каракалпакстан, медиацентр, общественное мнение, либеральная демократия, информационные технологии, социальная трансформация, медиапространство, общественный диалог, институциональный анализ.*

SOCIODEMOCRATIC PROCESSES AND TRANSFORMATION OF PUBLIC OPINION: NATIONAL AND GLOBAL APPROACHES REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

Annotation. *The article provides a philosophical analysis of the interconnectedness between sociodemocratic development models and national socio-political experience and people's mentality. The transformation of Western liberal-democratic patterns into national reality is examined through the lens of the socio-political and media environment of the Republic of Karakalpakstan. The study reveals the potential of regional media centers in stabilizing public opinion, their technological infrastructure, and subjective contradictions in information dissemination. Furthermore, it analyzes the responsibility of mediators in the evolution of social consciousness and the institutional challenges of establishing democratic values.*

Keywords: *sociodemocracy, Karakalpakstan, media center, public opinion, liberal democracy, information technologies, social transformation, media space, public dialogue, institutional analysis.*

Kirish. Global o'zgarishlarning Qoraqalpoq mediamarkazlariga hech qanday daxli va ta'siri yo'qdek, global dunyoning va undagi jarayonlarning aholisi ikki milliondan oshiqroq hududga ta'sirini ilg'ash qiyindek ko'rinadi. Ammo Qoraqalpog'iston O'zbekiston hududining 40% tashkil etadi, unda 16 tuman va 12 ta shahar mavjud.

Respublikada quyidagi mediamarkazlar axborot-kommunikatsiya tarqatish va ijtimoiy fikrni shakllantirish bilan shug'ullanadi: O'zbekiston Milliy Axborot agentligi qoshida Qoraqalpog'iston Axborot agentligi, Mamlakat teleradiokompaniyasining tarkibiy tarmog'i, gazetalar va nashriyotlar, xullas, O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalar tarqatuvchi eng asosiy mediamarkazlarning filiallari Qoraqalpog'istonda tashkil qilingan. Shuningdek, Qoraqalpog'istonda "Yangi O'zbekiston", "Xalq so'zi", "Ma'rifat", "Ishonch", "Hurriyat", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Народное слово", "Правда Востока", "Darakchi", "Adolat, "Milliy tiklanish", "O'zbekiston ovozi", "XXI asr", "Oila va jamiyat" kabi gazetalar, "Sharq yulduzi", "Jahon adabiyoti", "Tafakkur", "Fuqarolik jamiyati", "Jamiyat boshqaruvi", "Saodat", "San'at", "Ijtimoiy fikr", "O'zbekiston matbuoti" kabi jurnallar izchil tarqatiladi [1]. Ular umummilliy mediamarkazlar sifatida faoliyat yuritadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi mediamarkazlar tizimi umummilliy mediamakondagi tizimlardan qolishmaydi, ular ijtimoiy fikr va axborot bozorini shakllantirishga yetarli ta'sir ko'rsatish imkoniga ega. To'g'ri, ilg'or davlatlardagi texnologiyani joriy etish, chet el investitsiyalarini qoraqalpoq mediabozoriga ancha kechikib, goho sust olib kiriladi. Masalan, 2012-yili Toshkentda Germaniya BFE Stydio und Medien Systeme Gmbh kompaniyasi yordamida "Canon", "Sony", "Vinten", "Yamaha" , "Neumann" firmalaridan sotib olingan eng zamonaviy raqamli formatda ishlaydigan Mediamarkaz barpo etildi. Markazda 1000 kv. m. va 600 kv.m. hajmdagi 4 studiya tashkil qilingan. Bir paytning o'zida markazda 5 ta dastur ustida ishlash, axborotlar uzatish, rasmga olish, disputlar va ko'rsatuvlar uyushtirish mumkin. U 21 mediakamera bilan jihozlangan, dunyodagi barcha TV va Mediamarkazlar bilan ulanish, dialog uyushtirish,chet ellik mutaxasislarni kommunikatsiyaga jalb etish imkoni bor [2].

Qoraqalpog'istonlik ekspertlar mazkur mediamarkazda bo'lishgan, unda tajriba orttirgan meadiatorlar ham bor, ular shunday mediamarkazni Nukusda ham barpo etish lozim, deb bilishadi. Qoraqalpog'istonlik mediatorlar ushbu markaz orqali interaloqalarga chiqishi mumkin, shunday bo'lsa-da, ular toshkentlik hamkasblariga havas qilishadi. Bugun Qoraqalpog'istonda 5 telekanal mavjud, ulardan 1 davlat TV ("Qoraqalpog'iston" telekanali), 4 tasi xususiy TV ("Jaslar TV", "Amudaryo TV", "Ellikqal'a TV", "To'rtko'l TV"), 2 ta radiokanal (1 davlat va 1 xususiy radiokanal), 1 Axborot agentligi faoliyat yuritadi, 35 ta gazeta

va 9 jurnallar chop etiladi. Gazeta va jurnallarning 26 tasi qoraqalpoq tilida, qolganlari o‘zbek, rus, turkman va qozoq tillaridadir [3].

Bizni Qoraqalpog‘istondagi mediamarkazlarning ijtimoiy fikrni shakllantirshdagi real holati va muammolari qiziqtirgani uchun respondentlarning va mustaqil faoliyat yuritayotgan blogerlarning fikrlarini o‘rganishimiz tabiiy hol edi. Mutaxassislarning fikricha, ijtimoiy fikr bir tomonning qarashlarini emas, ularga qarshi yoki alternativ fiklarni ilgari suruvchi sube’ktlarning fikrlarini o‘rganishni talab etadi, ular o‘rtasidagi uyg‘unlik, qarama-qarshilik va antoganistik yondashuvlar mohiyatini aniqlashga ham da’vat etadi [4]. “Internetdan tez-tez, har kuni foydalasizmi?” degan savolimizga respondentlarning atigi 11% “Ha”, 47% “Onda-sonda”, 39% “Yo‘q” va 3% esa javob berishmagan. “Ha” deb javob berganlarning ichida ziyolilar, asosan o‘qituvchi, oliy ta’lim xodimlari, jurnalistlar ko‘pchilikni (89%) tashkil etadi [5]. Mazkur respondentlar internetning imkoniyatlaridan, ishlatish texnologiyasidan xabardor kishilardir. Internetdagi qarama-qarshi fikrlar, yondashuvlar ularni goho o‘z ketidan ergashtirib ketadi, umumiy intellektual bahsning ishtirokchilariga aylantiradi. Ijtimoiy fikrda ro‘y berayotgan evrilishlar ularga yaxshi ma’lum, ularning o‘zlari bu o‘zgarishlarning tashabbuskorlari bo‘lib mediamaydonga chiqadilar. Shu bilan birga, javoblardan Qoraqalpog‘istonda zamonaviy mediamarkazlar imkoniyatidan foydalanish, ijtimoiy fikrni shakllantirishda ularning potensialini baholash “onda-sonda” (39%) degan javobda aks etadi. Bu javobda, bir tomondan, ushbu respondentlarning ijtimoiy faoliyati va hayotida inter texnologiyalardan foydalanishi yuqori emasligi aks etsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy fikrni shakllantirishning o‘zi butunlay mediamar-kazlar ixtiyorida emasligidan darak beradi. Ushbu ziddiyatni anglamasdan turib mediamarkazlarning ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi faoliyatini obyektiv baholab bo‘lmaydi. Tajribalarni va respondentlar fikrini o‘rganishni umumlashtirgan holda, bu ziddiyatlarni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

–mediamarkazlar har doim ham ijtimoiy fikr va kayfiyatni obyektiv baholayvermaydi;

–mediamarkazlar faoliyatida ham subyektivizmga berilish, ma’lum bir ustanovkalarga ergashish, natijada real voqelikni falsifikatsiyalash uchraydi;

–ijtimoiy fikrning o‘zi ichki va tashqi omillar ta’sirida tez transformatsiyaga uchrashga moyildir;

–ijtimoiy hayotning sotsiodinamik xususiyati ijtimoiy fikr yo‘nalishiga ham, mediatorlar ustanovkalariga ham ta’sir etmay qolmaydi;

–ijtimoiy fikr dogmalardan uzoq bo‘lgani uchun yangilanish va g‘oyaviy evrilishlarga moyil, mediamarkazlar faoliyatining samaradorligi ushbu yangilanish va evrilishlarga muvofiq bo‘lganidagina ziddiyatlarni ma’lum darajada kamaytirishi, hal etishi mumkin.

Qoraqalpoq mediamarkazlari bilan ijtimoiy fikr o‘rtasidagi ziddiyatlarni 2022-yil iyun oyi boshida Nukus, Mo‘ynoq va Chimboyda yuzaga kelgan, butun jamiyatimizni tashvishga solgan voqealar fonida kuzatishimiz mumkin. E’tirof etish kerakki, keyingi besh, olti yil ichida Qoraqalpog‘iston Respublikasida havas qilarli ishlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning respublika hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq Orol dengizi suvi qurigan hududlarni obodonlashtirishga oid tashabbusi natijasida 1 million 525 gektar o‘rmonzor tashkil etildi. Birgina 2022-yilning o‘zida 100 ming gektar yer ko‘kalamlashtirildi. Har bir kilometr joylarda flora va faunaga ta’sir etuvchi yer osti quduqlari chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Bu umummilliy harakatda Respublikamizning barcha viloyatlari ishtirok etmoqda. Bir paytlari tupik tuman hisoblangan Shumanay tumanida “Shumanay ekoteks” korxonasi ishga tushirildi, xorazmlik tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar berish orqali xususiy sektorni rivojlantirish boshlandi. Ushbu tadbirkorlar yordamida keyingi ikki yil ichida hunarmandchilik, kutubxonalar va attraksionlar, istirohat bog‘lari va kompyuter markazlari ochildi. Beruniy tumanida esa Saudiya Arabistonining “AKWA Power” kompaniyasi bilan hamkorlikda shamol elektr energiyasi stansiyasi qurish boshlandi[6].

T.Atamuratov yozadi: “Qachon Qoraqalpog‘istonga xorijiy davlatlar korxonalari investitsiya bilan kelgan? Albatta, bu jarayon yaqin tarixda kuzatilmagan. Hududiy jihatdan Qoraqalpog‘iston O‘zbekistonning uchdan bir qismini egallashi inobatga olinsa, bizning shamollar bilan zarrin quyosh nurlari kelgusida ham mahalliy iqtisodiyotimizga yana ko‘p foyda keltirishi, shubhasiz. Bu hali boshlanishi, albatta... Qachon Qoraqalpog‘istonga O‘zbekistondagi barcha hokimlar kelgan? Biz, avval, bunday ijobiy holatning, hayratlanarli hamkorlikning guvohi bo‘lmaganmiz. Hududlardagi eng zo‘r tadbirkorlar bugun elimizga keldi. Agar ularning har biri Qoraqalpog‘istondagi 17 ta shahar va tumandan har biridagi bitta mahallaga homiylik qilsa, bittadan korxona tashkil etsa, maktab qursa, bu hudud har tomonlama ravnaq topadi” [7].

Tahlil va natijalar. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil fevral oyida Qoraqalpog‘istonga tashrif, buyurganida kelgusi besh yilda 2 ming 500 ta yangi korxona tashkil etilishini, natijada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ikki barovariga, oshirilishini e’lon qildi. Uning fikricha, ekologik innovatsiyalar va

texnologiya hududi deb e'lon qilingan Orolbo'yi mintaqasida "yashil energiya" ishlab chiqaruvchi 3 ta shamol stansiyasi hududga 1 ming 800 megavatt energiya beradi. Bu ishlarga xorijiy investorlarning 3 millirad dollar atrofida mablag'lari jalb etiladi. Natijada Qoraqolpog'istonda 10 ta quyosh va shamol elektr stansiyalari quriladi. 2022-yilda Nukus shahrini kompleks rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan, umumiy qiymati 12 milliard 361 million so'mlik 10 loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan Buning natijasida 3 mingta yangi ish o'rinlari yaratiladi [8]. Birgina Mo'ynoq (eng og'ir ekologik vaziyat mavjud hudud)da keyingi uch yil ichida 20 ortiq istiqbolli rejalar amalga oshirildi, ularni qiymati 500 milliard so'mdan oshiq. Natijada 1,5 ming yangi ish o'rinlari yaratildi. Tumanda yangi istirohat bog'i, maktab, kutubxona, sanatoriy va bolalar oromgohi bunyod etildi. 15 ming gektardan ordiq yaylovdap chorachalikni rivojlantirish, sun'iy ko'llar tashkil etib baliqchilik bilan shug'ullanish, mutlaq yangi transport logistik markazi ishga tushirildi. 300 o'rinli mehmonxona, savdo shaxobchalari, umumiy ovqatlanish va turistik xizmat ko'rsatish markazlar bunyod etildi. Bugun xususiy sektorda ishlayotgan yoshlar 70%ga yaqin. Xotin-qizlar bandligini ta'minlovchi korxonalar soni 27 ta [9].

2018-yil 16-oktabrida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unda shu paytgacha sarflangan millardlab mablag'lar, investitsiyalar kiritilganiga qaramay, Orolbo'yi hududaridagi ekologik ahvol og'irlicha qolayotgani ta'kidlandi. Demak, ichki resurslarni ishga solish, olimlar va jamoatchilikni harakatga keltirish, xorijiy tajribalardan foydalangan tarzda innovatsion izlanishlar olib borish, eng muhimi Orolbo'yi mintaqasidagi fojialarni bartaraf etish o'zimizning vazifamiz ekani ta'kildlanadi.

Akademik I.Abdurahmonovning qayd etishicha, "Besh yil avval tasavvurimiza sig'maydigan holatni yaqinda o'z ko'zimiz bilan ko'rdik-birinchi raqamli bort Mo'ynoq aeroportiga qo'ndi, yangi Mo'ynoqning qiyofasi endi umuman o'zgacha, qurigan Orol tubida barpo etilgan yashil makon va bu yerda tiklanayotgan hayvonot olami jahon olimlarini ham hayratga solmoqda" [10]. Bugun Qoraqalpog'iston aholisining 68,1% markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanmoqda. 2015-yili u ko'rsatkich atigi 27% atrofida edi. O'tgan besh yil ichida o'rta va past bosimdagi jami 82,8 kilometr gaz tarmoqlari qurildi, bu 2015-yilga nisbatan 1,6 baravar ko'pdir. 2017–2021-yillarda 771 ta ko'p qavatli uy joy fondini ta'mirlash, 336 ta bolalar maydonchalari qurish, 245 ta uy oldi yo'lakchalari barpo etish, yon-atrofni obodonlashtirish uchun 2015-yildagidan deyarli uch barovar mablag' sarflandi. 2021-yilning o'zidagina 22,7 ming ish o'rni yaratildi, 35,4 ming fuqaro doimiy ishga joylashtirildi, 26,8 ming kishi haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi [11].

Oxirgi besh yilda Qoraqalpog'iston budjetiga 11 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. 5 mingga yaqin oila "temir daftar"ga kiritilib, ularga moddiy yordamlar ko'rsatilmoqda. Qurilish ishlari 3,5 barobariga o'sdi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad 3 martaga ko'paydi. Bolalarni bog'chalarga qamrab olish darajasi 2017-yildagi 32% dan 75% ga yetdi. Real misollar, o'zgarishlar ko'rsatadiki, haqiqatan ham, qoraqalpoq xalqi hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, u O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga, innovatsion o'zgarishlarga hamohangdir. Qoraqalpog'istonni O'zbekistondagi rivojlanish jarayonlaridan ayricha tasavvur etish qiyin, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev amalga oshirayotgan Taraqqiyot strategiyassidagi maqsad va vazifalar bevosita Qoraqalpog'iston Respublikasiga ham taalluqlidir. Bugungi Qoraqalpog'iston, hatto besh-olti yil avvalgi hudud emas, uning tashqi qiyofasi, shaharsozligi, iqtisodiy infratuzilmasi, aholiga xizmatlar ko'rsatish darajalari, agrosanoati va zamonaviy mediaaxborotlar tizimining shakllanganligi mutlaq yangi voqelikdir.

Konstitutsiyaviy komissiya raisi A.Saidovning xabar berishicha, chet ellik ekspertlar, masalan, buyuk Britaniya parlamenti deputatlari J.Uittingdeyl, M.Pritchard, N.Smit va R.Xuk, YEXHT Parlament Assambleyasi raisi M.Sederfelt, Jenevadagi Parlamentlararo Ittifoq Bosh kotibi Martin Chungong, xalqaro mehnat tashkilotining Bosh direktori o'rinbosari, Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy direktori Heynz Kopler, BMT Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari Boshqarmasining Universal davriy sharh bo'limi boshlig'i Jianni Magazzeni, BMT Bosh kotibi o'rinbosari, BMT Aksilterror boshqarmasining rahbari V.Voronkov, BMT Bosh Assambleyasi Raisi A.Shahid, BMT Bosh kotibining birinchi o'rinbosari A.Moxammed va Janubiy Koreya, Hindiston, Yaponiya, Saudiya Arabistonidagi mas'ul shaxslar, huquqshunos va diplomatlar Sh.M.Mirziyoyev boshlagan konstitutsion o'zgarishlarni "ijobiy yondashuv" deb baholamoqda [12].

Mediamarkazlarimiz faoliyatida oshkorolik, so'z va ijod erkinligidan foydalanish yetishmayotganini, qobiliyatli kadrlar zarurligini, OAV moddiy texnika bazasini yaxshilash lozimligini Prezidentimizning o'zi ham ta'kidlaydi: "Axborot sohasida miqdor ko'rsatkichlarini sifat ko'rsatkichlariga aylantirish, milliy jurnalistikamiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish oldimizda turgan dolzarb vazifadir... Joriy yilda

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyat markazlari va Toshkent shaharida Matbuot uylarining holat tanqidiy o‘rganib chiqilib, yangi binolar barpo etish yuzasidan zarur choralar ko‘riladi” [13].

Xulosa va takliflar. Qoraqalpog‘istonda ijtimoiy fikr va zamonaviy mediamarkazlar faoliyati, tajribalari va muammolarning tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, hududdagi media sohasi jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, ijtimoiy fikrning erkin shakllanishi va targ‘ib qilinishida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Zamonaviy media markazlar aholi ovozini eshitish, jamoatchilik fikrini ifoda etish va demokratik qadriyatlarni qaror toptirishda muhim rol o‘ynashi kerak bo‘lsa-da, amalda axborot manbalarining cheklanganligi, texnik va kadr salohiyatining yetarli emasligi, ayrim hollarda senzura va avtotsenzura mavjudligi ijtimoiy fikrning to‘liq va erkin shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ijtimoiy fikrning tarbiyasi – bu jamiyatning ongli, tanqidiy va mas’uliyatli shaxslarini voyaga yetkazishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Agar media markazlar erkin, mas’uliyatli va xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi subyektlar sifatida faoliyat yuritsa, ular ijtimoiy ongni shakllantirishda, millatlararo totuvlik, madaniy barqarorlik va fuqarolik faolligini rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu bois Qoraqalpog‘istonda zamonaviy media markazlarni rivojlantirish, axborot erkinligini ta’minlash va jamoatchilik fikrining ochiq tarzda shakllanishi uchun institutsional, texnologik va axloqiy sharoitlarni yaratish – barqaror ijtimoiy rivojlanishning muhim falsafiy mezoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Qoraqalpog‘iston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi. Mintaqaviy matbuot tahlili va tarqatish holati. Nukus, 2023.

(2). “Jamiyat” (Общество) ijtimoiy-siyosiy gazetasi. 2012-yil, 17-yanvar soni.

(3). Berdimuratova G. Qoraqalpog‘istonda ommaviy axborot vositalari rivoji: holat va istiqbollar. “Matbuot va kommunikatsiya”, Toshkent, 2023, 4-son (2), 58–65-betlar.

(4). Шопенгауэр А. Эристика, или искусство побеждат в спорах. М., FV Editions, 2017; Диалектика в споре. М., “Ифран”, 1992.

(5). To‘laganov D. Internet va axborot iste’moli: mintaqaviy sotsiologik tahlil. “O‘zbekiston ijtimoiy fikr”, Toshkent, 2023, 7-son (1), 42–49-betlar.

(6). https://daryo.uz/2024/08/21/acwa-power-commences-construction-of-200-mw-wind-power-plant-and-100-mw-bess-in-karakalpakstan

(7). Atamuratov T. Yangi O‘zbekistonda Mo‘ynoq yangi hayotga qaytdi. “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 15-mart.

(8). Inson qadri tamoyili asosida Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha katta marralar belgilandi. “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 25-fevral.

(9). Inson qadri tamoyili asosida Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha katta marralar belgilandi. “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 25-fevral.

(10). Abdurahmonov I. Orolbo‘yi: ekologik inqiroz qanday bartaraf etiladi? “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 1-mart.

(11). Annaqlicheva G. Qadim Qoraqalpoq zamini yasharmoqda. “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 26-fevral.

(12). Dunyo jamoatchiligi e’tibori va e’tirofi. “Hurriyat”, 2022, 17-avgust.

(13). Mirziyoyev Sh. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 28-iyun.

Biyimbetov Jaksilik Kilishbayevich (Qoraqalpoq davlat universiteti doktorantura bo‘limi boshlig‘i, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent),

Abdurashitova Gulbarno Ahmedqulovna (Qoraqalpoq davlat universiteti falsafa ta’lim yo‘nalishi talabasi)

AXBOROT ASRIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada axborot asri sharoitida axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishi falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi insonning dunyoqarashi hamda axloqiy qarashlariga va qadriyatlarga ta’siri chuqur ijtimoiy falsafiy jihatdan tadqiq qilingan. Shuningdek maqolada axloqiy kategoriyalar va qadriyatlarning raqamli muhitdagi yangi mazmuni ochib berilib, axborot madaniyatini oshirish va yoshlarni ma’naviy tarbiyalash zarurligi ilmiy jihatdan asoslanagan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, texnologiya, dunyoqarash, murakkab axloqiy muammolar, transformatsiya, axborot almashinuvi, axloqiy qadriyatlar, axborot madaniyati, etika, globallashuv.*